


Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

MULTILINGUAL TURKISH DICTIONARY

Feruz Manukyan
PhD, senior teacher
ISFT
Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: multilingual dictionary, Turkic languages, word formation, litter, illustrative example, common names, proper names.

Received: 15.05.24

Accepted: 17.05.24

Published: 19.05.24

Abstract: This article highlights the purpose and main tasks of compiling a multilingual academic dictionary of Turkic languages in 20 languages, 18 of which are Turkic, and 2 are European languages. The author describes the main features, structure and priorities of this dictionary, intended for linguists, researchers, teachers, translators, journalists, media workers, students, postgraduates and doctoral students.

KO'P TILLI TURKIY LUG'AT

Feruz Manukyan
Ilmiy bo'lim bosh mutaxassisi, PhD, katta ilmiy xodim
ISFT instituti
O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ko'p tilli lug'at, turkiy tillar, so'z yasalishi, belgilar, ko'rgazmali misol, umumiy otlar, o'ziga xos ismlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy tillarning 20 ta tilda, shulardan 18 tasi turkiy va 2 tasi Yevropa tillarida ko'p tilli akademik lug'at tuzish maqsadi va asosiy vazifalari yoritilgan. Muallif tilshunos olimlar, tadqiqotchilar, o'qituvchilar, tarjimonlar, jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, talabalar, aspirantlar va doktorantlar uchun mo'ljallangan ushbu lug'atning asosiy xususiyatlari, tuzilishi va ustuvor yo'nalishlarini bayon etgan.

МНОГОЯЗЫЧНЫЙ ТУРЕЦКИЙ СЛОВАРЬ

Феруза Манукян
Старшей научный сотрудник, канд.наук.
ISFT
Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: мультиязычный словарь, тюркские языки, словообразование, помета, иллюстративный пример, имена нарицательные, имена собственные.

Аннотация: В данной статье освещаются цель и основные задачи составления мультиязычного академического словаря тюркских языков на 20 языках, 18 из которых – тюркские, и 2 – европейские языки. Автор описывает основные особенности, структуру и приоритеты данного словаря, предназначенного для лингвистов, исследователей, преподавателей, переводчиков, журналистов, работников средств массовой информации, студентов, аспирантов и докторантов.

KIRISH

Jahon axborot makonining muntazam integratsiyasi va globallashuvi, sharq va g'arb madaniyatlari to'qnashuvi sharoitida 40 ga yaqin turkiy xalq va elatning milliy va madaniy qadriyatlarini saqlab qolish va kelgusi avlodga bezavol yetkazish kun tartibidagi dolzarb muammoga aylandi. Aynan shu masala Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlarida bosh masala sifatida ko'tarildi. O'sib kelayotgan yosh avlod ongiga singdirilayotgan milliy o'zlik tushunchasi turkiy olamni birlashtiruvchi bosh omil ekanligi qayd etildi va turkiy davlatlar hamkorligi va integratsiyasining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga 2019-yil a'zo bo'lgan bo'lsa, 2021-yil 12-noyabrda Samarqandda bo'lib o'tgan sammitda raislik Turkiya davlatidan O'zbekistonga o'tdi. O'zbekiston ushbu tashkilot doirasidagi hamkorligining qator ustuvor yo'nalishlarini belgilab oldi. Shulardan biri: tashkilot a'zolari bo'lgan davlatlarning yaqinlashuvi, turkey olamning buyuk madaniy-tarixiymerosini ommalashtirish va targ'ib qilish maqsadida madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlikni mustahkamlash [1, b. 134]. Shu maqsadda O'zbekiston Turkiy davlatlar hamkorlik dasturlari doirasida gumanitar sohadagi qator loyihalarda ishtirok etib kelmoqda. Shunday yirik loyihalar tashabbuskorlaridan biri Qozog'iston bo'lib, qozoq olimlari rahbarligida **“XXI asr turkiy leksikografiyasi: ko'p tilli tarjima lug'atlar”** loyihasi amalga oshirilmoqda. Keng ko'lamlı mazkur loyiha Qozog'istondagi qator tashkilotlar, masalan, Al-Farobiy nomidaqi Qozog'iston milliy universiteti, Turkiy akademiya va boshqa ilmiy dargohlar olimlarini jiplashtirdi. Loyiha doirasida turkiy tillar tarixida ilk bor ko'p tilli akademik lug'at yaratish ham ko'zda tutilgan. Loyiha rahbari filologiya fanlari doktori, professor Gulgaysha Sag'idolda bo'lib, 2024-2025-yillarga mo'ljallangan. Mazkur loyihaning bosh maqsadi ko'p tilli tarjima lug'at yaratish asnosida umumturkiy tarixiy ildizlarga va lisoniy-madaniy qadriyatlarga daxldor axborotning erkin harakatlanishi uchun leksikografik mexanizmlarni takomillashtirish.

Ko‘p tilli akademik lug‘at 18 ta turkiy tilni qamrab oladi: qozoq, oltoy, ozarbayjon, boshqird, qoraqalpoq, qorachoy-bolqor, quman, qumiq, qirg‘iz, o‘zbek, tatar, tuva, turkman, turk, uyg‘ur, xakas, chuvash, shor). Shuningdek, Yevropa tillaridan rus va ingliz tili ham qo‘shilgan va shu tariqa lug‘at jami 20 ta tilni qamrab oladi.

Lug‘atning bosh tili – qozoq tili. Lug‘at so‘zligi zamonaviy qozoq tilidagi 45 000 ta so‘z va zo‘z birikmalarini o‘z ichiga oladi. Lug‘atga nafaqat faol qatlam so‘zlari, balki shevaga xoz so‘zlar, tarixiy so‘zlar, neologizmlar, xalq va ilmiy terminologiya kabi nafaol qatlam so‘zlari ham kiritilgan. Izohlanayotgan so‘zning morfologik belgilari kichik harflar, yotiq shriftdagi qisqartmalar bilan berilgan. Masalan; *olm.* – olmosh, *sftd.* – sifatdosh, *qarg‘. s.* – qarg‘ish so‘z va h.k. Terminlarning qaysi terminologiya sohasiga oidligi haqidagi ma’lumoq katta harflar bilan yotiq shriftdagi qisqartmalar orqali qavs ichida berilgan: (*TILSH*) – tilshunoslik, (*BOT*) – botanika termini, (*ME‘MOR*) – me‘morchilikka oid termin, (*ZOOL*) – zoologiyaga oid termin va h.k. Lug‘atning o‘ziga xos jihati shundaki, unga turdosh otlardan tashqari atoqli otlar, ya’ni mamlakat, shahar, suv obyektlari, xalqaro tashkilotlar nomlari ham izohlari bilan kiritilgan. Masalan, G harfida *Gaaga*, *Galapagos* kabi atoqli otlar berilgan. Lug‘atda bunday otlarning ma’nosi ham izohlab berilgan:

Қазақ тілі	Орыс тілі	Ўзбек тілі
Г, г	<i>Пятая буква казахского алфавита.</i>	<i>Qozoq alifbosidagi beshinchi harf.</i>
Гаага	<i>суц. Гаага (крупнейший город на побережье Нидерландов в Северном море); (ЭКОН)~ережелері Гаагские правила; (ПОЛИТ)~конвенциялары Гаагские конвенции.</i>	<i>ot. Gaaga (Niderlandiyaning Shimoliy dengiz sohilidagi yirik shahri); (IQT)~ережелері Gaaga qoidalari; (SIYOS)~конвенциялары Gaaga konvensiyalari.</i>
Галапагосс	<i>суц. Галапагос; ~аралдары Галапагосские острова (экзотические острова на востоке экваториальной части Тихого океана); Ч. Дарвиннің ~аралдарына экспедициясы (1835 г.) экспедиция Ч. Дарвина на Галапагосские острова (1835 г.); ~аралдарына қызықты саяхат захватывающий круиз по Галапагосским островам.</i>	<i>ot. Galapagos; ~аралы Galapagos orollari (Tinch okeanining ekvatorial sharqidagi ekzotik orollar); Ч. Дарвиннің ~аралдарына экспедициясы (1835 ж.) Ch. Darvinning Galapagos orollariga ekspeditsiyasi (1835-у.); ~аралдарына қызықты саяхат Galapagos orollari bo‘ylab qiziqarli sayohat.</i>

Lug‘atning bosh maqsadi qozoq tilining so‘z yasalish, leksik semantik va grammatik (morfologik, ayrim hollarda sintaktik) mohiyatini ochib berishdan iborat. Shuning uchun bosh so‘zga daxldor so‘z yasalish xususiyatlari, morfologik va sintaktik xususiyatlar bitta lug‘at maqolasida berilgan. So‘z yasalishi \diamond belgisi bilan berilgan: Masalan: **дабыра** (ovoza) so‘ziga oid

lug‘at maqolasida ~**сыз**qo‘shimchasi qo‘shilib **дабырасыз** (ovozasiz, jimgina) sifati, ~**шыл** qo‘shilib **дабырашыл** (ovozaga, shov-shuvga moyil) sifatlari hosil bo‘lishi ko‘rsatilgan.

дабыра	суц. огласка (<i>шумная, громкая</i>); разглашение; показуха; ~ болу стать общедоступным; получать известность (<i>шумную</i>); ~ ету /~ қылу оглашать во всеуслышание; ◇ <i>прил.</i> ~ сыз без шума, без шумной огласки; без громкой рекламы; ◇ <i>прил.</i> ~ шыл склонный к шумихе или к сенсационным известиям.	<i>от.</i> ovoza (<i>shov-shuvli</i>); dong‘i; ko‘zbo‘yamachilik; ~ болу hammaga ma‘lum bo‘lmoq; shuhrat qozonmoq (<i>keng</i>); ~ ету /~ қылу ovoza qilmoq; ◇ <i>sif.</i> ~ сыз ovozasiz, jimgina; keng reklamasiz; ◇ <i>sif.</i> ~ шыл ovozaga, shov-shuvga moyil.
---------------	---	---

Shuningdek, lug‘atdan bosh so‘z ishtirokidagi turg‘un birikmalar, iboralar ham o‘rin olgan. Masalan cho‘l o‘simligi **ебелек**(ebalak [2, b. 344], qamg‘oq, laylakhas) bilan bog‘liq **ебелек қағу** iborasi berilgan. Mazkur ibora o‘zbek tilidagi “boshi osmonga yetmoq” iborasi mazmuniga to‘g‘ri keladi. Lug‘atdan o‘rin olgan milliy xoslangan birliklar, milliy realiya va lakunalar bilan bog‘liq **езуиң жимау**(ezuvini yig‘maslik) – ko‘p kulmoq, **емге жоқ** (*emga ham yo‘q*)–anqoning urug‘i, **дабыл қағу** (dovul urmoq) – jar salmoq, xabar bermoq, **дастарқаннан аттау** (dasturxondan xatlab o‘tmoq) ko‘rnamaklik qilmoq, tuzlig‘iga tupurmoq kabi iboralar turkiy tillarning milliy-madaniy manzarasini ochishga xizmat qiladi, ammo shu bilan birga ularning tarjimasini berish va izohlashda lug‘at tuzuvchilaridan chuqur bilim, til sezimi va topqirlikni talab etadi.

Lug‘atdanturkiy xalqlarning o‘ziga xos turmush tarzi, etnografiyasi bilan bog‘liq birliklar ham berilganligi diqqatga sazovor. Bunday birliklar (**ETN**) lug‘at belgisi bilan berilgan. Ularning ayrimlari o‘zbek va qozoq tillari uchun mushtarak bo‘lsa, ayrimlari faqat qozoq madaniyatigagina xos. O‘zbek tilida ham mavjud etnografizmlarning ham o‘zbekcha muqobili, ham batafsil izohi berildi, mavjud bo‘lmaganlarning esa o‘zbekchaga mos talaffuz shakli va izohi keltirildi Masalan, lug‘atdan o‘rin olgan **ежегабыл**, **ениш** etnografizmlari o‘zbek tilida **beshikkerti** [3; b. 442], **enchi** [4; b. 45] ga to‘g‘ri keladi.

Qozoq va o‘zbek tillari uchun mushtarak etnografizmlar:		
ежегабыл	суц., уст. (ЭТН) обряд сватовства детей (<i>совершаемое родителями, когда дети еще не появились на свет или в раннем их возрасте</i>); бұрын іштегі балаға ~ ретімен бел құда болысады прежде по правилам ежегабыла сватали детей, еще не родившихся; ~ бұзылды нарушен договор о брачном союзе (обычно это происходит, когда дети достигают совершеннолетия и по каким-л. причинам они не могут вступить в брак).	<i>от. esk. (ETN) beshikkerti (bolalarni dunyoga kelmasidan oldin yoki go‘dakligida unashirish odati);</i> бұрын іштегі балаға ~ ретімен бел құда болысады avvallari beshikkerti odatiga ko‘ra hali tug‘ilmagan farzandlarni ham unashirishgan; ~ бұзылды beshikkerti buzildi (odatda farzandlar voyaga yetib, qaysidir sababga ko‘ra turmush quolmaganda sodir bo‘ladi).

<i>енши</i>	суц. (ЭТН) <i>енши</i> (часть имущества, которая выдается сыновьям при отделении; доля в наследстве); ~ <i>мал</i> собственный скот (полученный от отца); скот, предназначенный для <i>енши</i> ; причитающаяся, полагающаяся доля (чего-л.); <i>мениң одан алмағым, ~м бар</i> мне от него причитается; <i>өз~сі</i> личная доля; <i>өсүц. ~лес(ЭТН)</i> сонаследник (о сыновьях); человек, имеющий равную <i>скем-л.</i> долю в наследстве (напр., <i>приемыш</i> или <i>работник, который вырос в доме и не получил особой платы и др.</i>); <i>~лестік</i> право на совместное пользование наследством.	от. (ETN) <i>enchi</i> (<i>farzandlarini oiladan ajratib chiqarganda beriladigan mol-mulkning bir qism; merosdagi ulush</i>); ~ <i>мало</i> ‘z mulki(<i>ota bergan</i>); <i>enchi</i> sifatida ajratilgan; berilishi lozim bo‘lgan ulush; <i>мениң одан алмағым, ~м бар</i> менинг undan oladiganim bor; <i>өз~сі</i> ‘z ulushi; <i>өт.~лес(ЭТН)</i> <i>hammeros</i> (<i>o‘g‘illar haqida</i>); <i>merosga teng sherik bo‘lgan odam (masalan, uyda voyaga yetgan va to‘lov olmagan asrandi yoki xizmatkor)</i> ; <i>~лестік</i> merosdan teng foydalanish huquqi.
Qozoq tiliga xos etnografizmlar:		
<i>еру I</i>	суц. (ЭТН) <i>остановка, привал (во время кочевки)</i> ; <i>~лік(ЭТН)</i> <i>ерулик (угощение, устраиваемое в честь прикочевавших позже соседей)</i> ; <i>көшкен елдеекі күн~лік болды</i> кочующий <i>аул</i> сделал двухдневную <i>передышку (привал)</i> ; <i>~лік беру</i> приглашение в гости <i>новосельца-соседа</i> ; <i>өгл. ~леу</i> устроить привал во время кочевки.	от. (ETN) <i>bekat, qo‘nalg‘a (ko‘chishpaytidagi)</i> ; <i>өсif. ~лік</i> yerulik (ETN) (<i>keyin ko‘chib kelgan qo‘shnilar uchun uyushtiriladigan mehmondorchilik</i>); <i>көшкен елде екі күн ~лік болды</i> ko‘chib kelgan ovul ikki kun ziyofat qildi; <i>~лік беру</i> yangi ko‘chib kelgan qo‘shnini mehmonga chaqirmoq; <i>өfe‘l. ~леу</i> ko‘chish davomida bir yerga qo‘nib dam olmoq.
<i>дебиске</i>	суц. (ЭТН) <i>дебиске, легкая кошма (украшенная орнаментом из ткани на войлочную поверхность)</i> ; <i>жерге ~ төсеу</i> разостлать на полу <i>дебиске</i> .	от. (ETN) <i>dabiska, yengil kigiz (kigiz yuzasiga mato bilan bezatilgan)</i> ; <i>жерге ~ төсеу</i> yerga dabiska yozmoq.
<i>дөдеге</i>	суц. (ЭТН) <i>дөдеге (полоска тонкой белой кошмы, вышитая орнаментом для украшения юрты)</i> .	от. (ETN) <i>dudaga (o‘tovni bezash uchun naqshinkor ingichka oq jun tasma)</i> .

Lug‘at illyustrativ misollari sifatida ko‘plab xalq maqollari keltirilgan. Ularning aksariyati o‘zbek tili bilan mushtarak bo‘lsa, ayrimlari faqat qozoq paremiologik fondiga mansub bo‘lib, so‘zma-so‘z tarjimasi tushunarli bo‘lsa, so‘zma-so‘z tarjimasi berildi, ayrim hollarda ma‘nosi izohlandi, kerakli o‘rinlarda muqobillari ko‘rsatib o‘tildi.

Mushtarak maqollar:

Ананың көңілі балада, баланың көңілі далада Onaning ko‘ngli bolada, bolaning ko‘ngli dalada.

Алыстан арбалаганиша, жақыннан дорбала Uzoqdan aravalaguncha, yaqindan to'rvala (ya'ni oz-ozdan).

Дос басқа қарар, дұшпан аяққа қарар Do'st boshga boqar, dushman – oyoqqa).

Qozoq paremiologik fondiga xos maqollar:

Дәндеуген қарсақ құлағымен ін қазады (so'zma-so'z: o'rgangan qarsoq qulog'i bilan in qaziydi) Doim yomonlik qilib yurgan odam (o'g'rilik, yolg'on va h.k.) harakatlarini to'xtatmaydi (muqobili: o'rgangan ko'ngil o'rtanmay qo'yimas).

Дәттің де дәті бар, түсетұғын сәті бар Sabrning ham sabri bor, keladigan saodati (muqobili: Sabrning tagi – sariq oltin).

Дауылпаз қағылса, қаршыға қомданар Dovulpaz urilganda, qarchig'ay qanotin qoqar.

Өнерлінің тасы өрге домалайды Hunari borning toshi o'rga o'rimalaydi.

Дүмиемолда дін бұзар Chalasavod mulla dinni buzar (shariat qonunlarini o'zicha talqin qiladi).

Ел құлағы елу Elning qulog'i – ellikta.

Елдестіру елііден, жауластыру жаушыдан Yarashtirish – elchidan, yovlashtirish – jovchidan.

XULOSA

Ko'p tilliturkiy tarjima va akademik lug'atlar, bir tomondan, turkiy davlatlarning jiplashuvi, madaniyat va fan sohalaridagi hamkorligiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, leksikografik amaliyot takomillashuvini ta'minlaydi. Shu bois bunday lug'atlar ko'lamini yanada kengaytirish, lug'atchilik amaliyotiga ko'proq olimlarni jalb etish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мустофаев М. Приоритеты Узбекистана в рамках организации тюркских государств (ОТГ) // Sharq mash'ali, 2022. – №14 (2). – С. 130-135.
2. Абдуллаев А.А., Мадумаров Т.А., Дариев А.С., Сатторов Б.Х., Рўзматов Э.Ю., Сирожидинов Б.А. Биологиядан қисқача изоҳли луғат. – Тошкент, 2016.
3. O'zbektiliningizohlilug'ati. 5 jildlik. 1-jild. – Toshkent; G'afurG'ulom, 2022.
4. O'zbektiliningizohlilug'ati. 5 jildlik. 2-jild. – Toshkent; G'afurG'ulom, 2022.